

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



«MUTAXASSISLIK»

Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti rektori

G. Rixoyeva

2024-yil

**10.00.05 – “OSIYO VA AFRIKA XALQLARI TILI VA ADABIYOTI”  
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA  
“MUTAXASSISLIK” FANIDAN QABUL IMTIHONI  
DASTURI**

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2 - sonli bayonnoma).

**Tuzuvchilar:**

A. Mannonov - filologiya fanlari doktori, professor  
Q. Sodiqov - filologiya fanlari doktori, professor  
M. Imomnazarov - filologiya fanlari doktori, professor  
R. Xodjayeva - filologiya fanlari doktori, professor  
X. Alimova - filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

Z. Islomov - filologiya fanlari doktori, professor  
Q. Omonov - filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH

Ushbu dastur 10.00.05 – “Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonini qabul qilish uchun tuzilgan.

Dastur ikki yo‘nalishni qamraydi: Osiyo va Afrika xalqlari tillari hamda Osiyo va Afrika xalqlarining adabiyoti.

Tilshunoslik yo‘nalishida talabgorning Sharq tillarining tarixiy taraqqiyoti, hozirgi sharq tillarini tadqiq etish bilan bog‘liq masalalarni bilish ko‘zda tutiladi.

Osiyo va Afrika xalqlari tillari bo‘yicha talabgor quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lmog‘i kerak:

- o‘rganilayotgan sharq tilining taraqqiyot bosqichlari;
- o‘rganilayotgan sharq tilining yozma, adabiy va og‘zaki shakllari;
- o‘rganilayotgan tilning fonetik tizimi va fonologik xususiyatlari, yozuv tizimi va tarixiy bosqichlari, imlo qoidalari, morfologiya va sintaksisi va ularni o‘rganishdagi mavjud muammolar;
- o‘rganilayotgan tildagi so‘z yasash usullari va ularning o‘rganilganlik darajasi;
- o‘rganilayotgan tilning leksikologiyasi va ularning boshqa tilshunoslik yo‘nalishlari bilan aloqasi;
- o‘rganilayotgan til bo‘yicha tilshunoslik terminologiyasini egallash va ilmiy adabiyotlarni o‘qib, tarjima qilish malakasiga ega bo‘lish.

Adabiyotshunoslik yo‘nalish bo‘yicha kirish imtihoni dasturida sharq xalqlari adabiyotlarini o‘rganish borasidagi mamlakat adabiyotining xronologik tarzda rivojlanish tarixi, bosqichlari, har bir bosqichning umumiy adabiy tavsifi, bu davr ijodkorlarining ijodi, adabiy merosi va bu merosning mazmun va mohiyati haqida bilimga ega ekanligi e‘tiborga olinadi. Unda sharq xalqlari (arab, fors, afg‘on, hind, xitoy, yapon, koreys va turk) adabiyotining qadimgi davrdan XXI asrning boshigacha bo‘lgan rivojlanish tarixini to‘liq aks ettirgan mavzular qamrab olingan.

Uch asosiy mintaqada - Uzoq Sharq, Janubiy va janubi-sharqiy Osiyo hamda Yaqin va O‘rta Sharq (shimoliy Afrikadagi arabiyzabon mamlakatlar bilan birga) mintaqalarida shakllanayotgan bo‘lishiga qaramasdan Sharq mamlakatlari xalqlarida madaniyat, diniy falsafiy, axloqiy-estetik qarashlardagi mushtarakliklar, adabiy aloqalardagi yaqinlik va tizimlilik va ayrim adabiy jarayonlardagi umumiylikni (jumladan, o‘rta asrlardagi O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Hindistondagi forsiy tildagi adabiy jarayonlar, Indoneziya va Malayziya qadim va o‘rta asrlar adabiyotining umumiyliigi va boshqalar) hamda har bir xalq adabiyotida shu xalqning o‘zigagina xos bo‘lgan individul xususiyatlar mujassamlashganligi haqida ilm va tasavvurga ega bo‘lishi talab etiladi.

Dasturda sharq xalqlari adabiyoti rivojiga asos bo‘lgan manbalar, adabiyot taraqqiyoti davomida shakllangan turli yo‘nalish va oqimlar, turli nasr va nazmga oid janrlar, sharq xalqlari adabiyotining poetika masalalari, ijodiy metodlar masalalariga mustaqil fikr-mulohaza bildira olishi ko‘zda tutiladi.

# **I. OSIYO VA AFRIKA XALQLARI TILLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY MASALALARI**

## **II. Tilshunoslikning umumnazariy masalalari**

Sharq tillarini o'rganish bo'yicha tilshunoslikning umumiy muammolari. Zamonaviy tilshunoslik maktablari. Tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Ilmiy tadqiqot tamoyillari. Til universaliiylari. Dunyo tillari va ularni tasniflash masalasi.

O'rganilayotgan tilning jahon tillari orasida tutgan o'rni va tillar oilasiga mansubligi. Tilning rivojlanish bosqichlari. Qadimiy davri va undagi asosiy yozma manbalar. O'rta davri va uning yozma manbalari. Hozirgi zamon adabiy tili, yuzaga kelishi, shakllanish bosqichlari, qardosh tillar va qo'shni tillar bilan o'zaro munosabatlari; globallashuv jarayoni va yetakchi tillar bilan o'zaro munosabati. Til va uning funksiyasi bo'yicha nazariy qarashlar. Tilning ilmiy va ijtimoiy vosita sifatida rivojlanish istiqbollari. Tildagi mavjud ilmiy muammolarni mamlakatda va mamlakatdan tashqarida o'rganilganlik darajasi. Mamlakatdagi milliy tilshunoslik nazariyasining jahondagi yetakchi tilshunoslik ilmiy maktablariga munosabati va takomil darajasi. Tillarni qiyosiy jihatdan o'rganish. Kognitiv tilshunoslik. Lingvomadaniyatshunoslik. Lingvopoetika. Mamlakat tilshunoslarining yaratgan asosiy ilmiy adabiyotlari va ularning yo'nalishlari: grammatika nazariyasi, leksikologiya, so'z yasalishi, semasiologiya, fonetika va fonologiya, uslubshunoslik va leksikografiya bo'yicha e'lon qilingan asosiy adabiyotlar.

### **Til tarixi masalalari**

Sharq tilining tarixi. Kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari. Tilning nutq tovushlari tizimining tarixiy taraqqiyoti. Yozuv tarixi masalalari. Yozma yodgorliklar tilini o'rganishning nazariy masalalari. Sharq yozma yodgorliklarini fonetik, leksik-semantik, grammatik jihatdan o'rganish. Til tarixini diaxronik aspektda o'rganish. Tarixiy leksika va uning takomili. Tarixiy leksikografiya masalasi. Tilning morfologik tizimi va uning tarixiy taraqqiyoti. Grammatik kategoriyalar va ularning o'ziga xosliklari. Yozma manbalar va ularning tili masalasi. Sintaksis tarixi. Tilning sintaktik qurilishi va uning o'zgarib borishi. Yozma yodgorliklarda uslub masalasi: badiiy uslub va uning tarixiy takomili; rasmiy uslub va uning kelib chiqish va tarixiy takomili; ilmiy uslub va uning tarixi.

### **Hozirgi sharq tillarini tadqiq etishning nazariy masalalari**

#### **Fonetika**

Quyida berilgan masalalarning umumiy va xususiy tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqi masalalari:

O'rganilayotgan tilning fonetik tizimi va uning fonologik asoslariga muvofiqligi. Fonetik tizimi va fonemalar tasnifi. Tovush va fonema. Fonema va harf. Unli fonemalar va ularning tasnifi. O'rganilayotgan til vokalizmining boshqa tillar (o'zbek tili) bilan o'xshashligi va farqi.

Undosh fonemalarning tizimi va ularning tasnifi. O'rganilayotgan til konsonantlarining boshqa tillar bilan o'xshashligi va farqi.

O'rganilayotgan til bo'g'inlarining tuzilishi. Tildagi so'z va jumla urg'usi qonuniyatlari. Gapdagi mantiqiy urg'u va intonatsiya xususiyatlari. Fonologik transkripsiya tizimi va uning xalqaro transkripsiya tizimiga mosligi.

### **Yozuv**

O'rganilayotgan til yozuvi haqida umumiy ma'lumotlar. Tilning alifbo (yozuv) tizimi. Fonemalarning grafik ifodalanishi va ligaturalar (ierogliflar). Yozuvdagi grafik belgisi bo'lmagan fonemalar (tonlar) va ularning ifodalanish usullari. Yozuv turlari (bosma va xattotlik turlari). Tilning raqamlari va ularning belgilar tizimi. Imlo qoidalari va tinish belgilari.

### **Leksika**

So'z leksikologiya fanining predmeti sifatida. So'zning leksika tizimi bilan til tizimi o'rtasidagi farqi. So'zlarni tasnifi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Etimologiya va tarixiy leksikologiya. Terminologiya. Leksikalashuv. Frazologiya. Tabu va evfemizm. Lug'atchilik.

### **Grammatika**

Grammatikaning o'rganish mavzusi. Tilning grammatik qurilishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar. Morfologiya va sintaksisning sharq tillari bo'yicha o'zaro munosabati.

Morfologiya. Leksik-semantik va grammatik kategoriyalarning ilmiy tadqiqi, sharq tillari bo'yicha o'ziga xos ilmiy yondashuvlar. Quyida berilgan masalalarning umumiy va xususiy tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqi masalalari:

So'zlarni turkumlash prinsiplari. Mustaqil so'z turkumlari va ularning tasnifi bo'yicha ilmiy yondashuvlar. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish turkumlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularga xos grammatik kategoriyalar tadqiqi.

Yordamchi so'z turkumlari, ularning turlari va o'ziga xosliklari. Bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarning sharq tillarida tavsifi va tasnifi masalalari.

Alohida so'z turkumlari, ularni guruhlashtirish. Modal so'zlar, taqlid so'zlar va undov so'zlarning o'ziga xosliklari va ular bo'yicha tadqiqotlar.

### **Sintaksis**

Sintaktik kategoriyalarning ilmiy tadqiqi, sharq tillari bo'yicha o'ziga xos ilmiy yondashuvlar.

Quyida berilgan masalalarning umumiy va xususiy tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqi masalalari:

So'z birikmasi va gap. So'z birikmasining asosiy turlari: moslashuv, bitishuv, ko'makchili va artikllar vositasida yasalgan so'z birikmalari. So'z birikmalari va turg'un birikmalar.

Sodda va qo'shma gaplar.

Sodda gaplarning turlari: yig'iq va yoyiq sodda gaplar. Shaxssiz, atov va egasi tushib qolgan gaplar. Gap bo'laklari. Gapning uyushiq bo'laklari. Ajratilgan izoh bo'laklar. Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan bo'laklar, ular bilan tuzilgan gaplar.

Qo'shma gaplar. Teng bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar. Qo'shma gap bo'laklarining o'zaro bog'lanish usullari.

Ergash gapli qo'shma gaplar, ularning tuzilishi, turlari, gap bo'laklarining o'rni. Murakkab qo'shma gaplar va ularning turlari. Muallif gapi, ko'chirma va o'zlashtirma gap.

Gapning aktual bo'linishi. Tema-rematik munosabatlarning paradigmaticasi.

Presuppozitsiya. Gaplarning shakl va mazmun bo'yicha assimetriyasi.

Leksikologiya va frazeologiya. Sharq tili ilmida leksikologiya bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, o'ziga xosliklari. Sharq tili ilmida frazeologiya bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, o'ziga xosliklari.

Quyida berilgan masalalarning umumiy va xususiy tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqi masalalari:

Tilning lug'at tarkibi va uning tadqiqi. Tub so'z va o'zlashmalar. So'zlarning o'zaro sintagmatik va paradigmatic munosabatlari. Til birliklarining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari va ularning tadqiqi. Til lug'at tarkibining o'zgarib borishi. Konnotasiya.

So'z yasalihi. So'z yasalihi usullari. Affiksatsiya, kompozitsiya, leksikalizatsiya, transpozitsiya, reduplikatsiya va b. usullari.

Uslubshunoslik. Sharq tili ilmida stilistika masalalarining yoritilishi, nutqning funksional uslublari va ularning tadqiqi. Adabiy til va og'zaki nutq uslubi. Og'zaki nutqning fonetik, morfologik va sintaktik o'ziga xosliklari. Etiket qoidalari.

Matn lingvistikasi. Sharq tili ilmida matn lingvistikasining o'rni. Matni o'rganishda umumiy va xususiy yondashuvlar. Pragmatika.

## **SHARQ XALQLARI ADABIYOTI**

Adabiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'rni. Ma'naviyat va adabiyot. Badiiy adabiyotning bosh obyekti. Yosh avlod ma'naviy tarbiyasida badiiy adabiyotning yetakchi mavqei va buning sabablari. Estetik tarbiya va adabiyot. O'zbekistonda Sharq xalqlari adabiyotini o'rganilish darajasi.

Adabiyotda ramz, shakl va mazmun. Badiiy matn va badiiy uslub. Badiiy tafakkur va hayotga estetik munosabat. Badiiy adabiyotda axloqiy qadriyatlar.

Adabiy jarayonga yondoshuv turlari. Sharqda adabiy maktablar, oqimlar va yo'nalishlar. Sharq adabiyotida ijodiy metod va uslub masalasi. Sharq adabiyotini davrlashtirishning umumiy muammolari. Yangi davr Sharq adabiyotida romantizm, modernizm, postmodernizm tamoyillari. Sharq adabiyotida realizm masalasi.

Nazariy poetika. Adabiyot san'atning bir turi sifatida. Sharq adabiyoti va musiqa san'ati. She'riyatda vazn, ritm va ohang. Xalq og'zaki ijodida mazmun va ohang uyg'unligi. Mumtoz she'riyatda musiqiylikni ta'minlovchi badiiy vositalar. So'z san'atida tasviriylilikni ta'minlovchi omillar. Sharq adabiyoti va miniatyura san'ati. Xattotlik san'ati.

San'at – voqelikka taqlid sifatida (“mimezis” nazariyasi). Insonlar faoliyati – badiiy adabiyotning bosh mavzusi sifatida (Lessing nazariyasi). So'z san'atida emosional ta'sir qudratini hosil qilishning o'ziga xos usullari (Katarsis nazariyasi). So'z san'atida metafora va tashbihning ahamiyati.

Badiiy nutq so'z san'atining asosi sifatida. Nasr va nazmda badiiy nutqning o'ziga xos namoyon bo'lishi. Nasr va nazmda so'z va nutq.

Badiiy asarning tarkibiy shakllanishi. Badiiy asarda voqea qatlami. Syujet va fabula: Adabiyotshunoslikda muallif va hikoyachi (roviiy) obrazi. Kompozisiya va komponent. Personaj, xarakter, tip (yig'ma xarakter).

Badiiy asar turlari. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi. Epik janrlar. Epos va roman. Sharq adabiyotida kichik epik janrlar va epik qahramon masalasi.

Qadim va O'rta asrlarda sharq adabiyotida drama. Mumtoz sharq adabiyotida dramatik tur unsurlari. An'anaviy va xalq teatri. Drama va teatr. Yangi davrda dramatik janrlar. Dramatik asarda syujet va kompozisiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Dramatik asarda monolog va dialog.

Lirik she'riyat va nasriy lirika. Lirik nutq: vazn, qofiya, ohang. Lirikada shakl va mazmun mutanosibli. Lirik asarda syujet va kompozisiya. Lirik asar personajlari. Mumtoz adabiyotda lirik janrlar. Xalq og'zaki ijodida lirik janrlar va ularning yozma adabiyotga ta'siri. Yangi davr she'riy janrlari. Nasriy lirika. Lirikada personaj va xarakter masalasi. Lirik qahramon va muallif.

Yangi davr jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar. Yangi davr Sharq xalqlari adabiyotidagi o'zgarishlar va ularning tarixiy-ijtimoiy omillari. Yangi davrda Yevropa adabiyoti va falsafiy estetik oqimlarining sharq xalqlari adabiyotiga ta'siri.

XX asr realizmi va uning o'ziga xosligi. Neorealizm. Magik realizm. Intellektual realizm. Sharq adabiyotida ularning namoyon bo'lishi.

Modernizm, simvolizm, naturalizm va ularning ko'rinishlari. Postmodernizm, uning modernizmdan farqi va asosiy belgilari.

## **ARAB ADABIYOTI**

Qadimiy va mumtoz davr arab adabiyoti

Arab adabiyotini davrlashtirish masalalari. Johiliya davri adabiyoti. Qadimgi arab qasidasi. Muallaqa mualliflarining ijodi. Imrul Qays, Antara, Tarafa va boshqalar. Islom, Qur'on va hadislarning adabiyotga ta'siri. Ilk islom davri adabiyoti. Ka'b ibn Zuxayr, Xasan ibn Sobit.

Ummaviylar davri adabiyoti. Siyosiy she'riyat. Al-Axtal, al-Farazdak, al-Jarir. Uzro ishqiy lirikasi. Jamil ibn Ma'mar, Qays bin Zarix, Layla al-Axyaliya. Hijoz ishqiy lirikasi. Omar ibn Abu Robia ijodi. Abbosiylar davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. «Yangilanish» davridagi she'riyat. Bashshar ibn Burd, Abu Nuvvos, Abul Atahiya va boshqalar. «Yangilanish» davrida badiiy nasrning shakllanishi. Abdulloh ibn al-Muqaffa. «Kalila va Dimna» tarjimasining ahamiyati. «An'anaga qaytish harakati» shoirlari. Abu Tammom va al-Buxturiy. Ibn Rumi ijodi.

Ibn al-Mutozz asarlarida badiiyat masalasi. Al-Johiz «adab» janrining asoschisi. «Sintez» davri she'riyati. Al-Mutannabiy va Abul A'lo al-Ma'arriy va boshqa shoirlar. Badiuzzamon al-Xamadoniy va al-Xaririy ijodida maqoma janri. «Sintez» davrida adabiy tanqidchilik va tazkiranavislik. Andalusiya adabiyotida arab va ispan an'alarining uyg'unligi. Arab-ispan she'riyatida yangi janrlar (zajal va muvashshah). Ibn Zaydun ijodi. Mamluklar davri adabiyoti. Birinchi ilmiy-adabiy ensiklopediyalar.

Yangi davr va zamonaviy arab adabiyoti

«An-nahda» madaniy yuksalish harakati kontekstida yangi arab adabiyoti shakllanishi. «Yangi arab adabiyoti» tushunchasi. Ma'rifatparvarlar davri adabiyoti. Misr, Suriya, Tunis publisistlari. Yangi arab adabiyotida tarixiy roman janri (Jurji

Zaydon, Farax Antun ijodi). Yangi arab adabiyotida hikoya janri. Al-MuvayliXIy va al-Manfalutiy.

Misr va Iroqda “yangi mumtoz she'riyat” yo‘nalishi. Al-Barudiy, Shavqiy, ar-Rusafiy va boshqalar.

“Al-Ittijah al-vidjaniy” yo‘nalishi (arab romantizmi). Suriya-amerika adabiy maktabi. Jubron Halil Jubron, Amn ar-Rayhoniyy va boshqalar.

“She'r al-vidjon” oqimi. Misr (“Divan” jamiyati) va Tunis adabiyotida – Abul Qosim ash-Shabbiy.

Misr va Suriya adabiyotida yangi realistik yo‘nalish. Misr modernistlari (al-Mujaddiduna).

Birinchi arab realistik romanlar: “Zaynab” (M. Haykal), “Ayyam” (T. Husayn), “Ruhning qaytishi” (T. al-Hakim).

Misrlik mashhur arab hikoyanavislari: Muhammad va Mahmud Teymurlar, Yahya Haqqiy va boshqalar.

Mustaqillik yillarda Misr, Suriya va boshqa arab mamlakatlarida adabiyot. Suriya yozuvchilar uyushmasi faoliyati.

1952 yil inqilobdan keyin misr adabiyoti namoyandalari ash-Sharqaviy, al-Xamisiy, Yusuf Idrislarning ijodiy evolyusiyasi.

“Nobel” mukofoti sovrindori Nagib Maxfuzning adabiy merosi.

Misrda “Yangi mavj” oqimi tamoyillari. “Yangi mavj” hikoyanavislari (Hofiz Rag‘ab, Diya ash-Shanqaviy va boshqalar).

60-70 yillar Suriya adabiyotida yangi burilish. Zakariya Tamer, Jorj Salim va boshqalar ijodi.

Arab “yangi roman” oqimida modernizm va postmodernizm unsurlari.

Yangi davr Iroq adabiyotida nasrnavislik. Zunnun Ayyub va Furad at-Tekerli, Abu Raxmon ar-Rubg‘iy ijodi.

Livan adabiyoti. Marun Abbud va Jorj Xana ijodi.

Mag‘rib adabiyotlarida ikkitillik. Jazoirda arabiyzabon va fransuzzabon adabiyot.

Tunisda arab va fransuz adabiyotlari namoyandalari ijodi.

Marokash adabiyotining rivojida xalq og‘zaki ijodini o‘rni.

Ko‘rfaz arab davlatlarida jadallashgan adabiy jarayon (Yaman, Quvayt, BAA, Ummon, Qatar, Bahreyn misolida).

## **ERON ADABIYOTI**

Qadim va mumtoz davr fors adabiyoti (X-XV asrlar)

Eron adabiyotini davrlashtirish masalalari. Islomgacha eroniy tillardagi adabiyot va uning o‘ziga xos jihatlari. Islomgacha Eron va Turon xalqlari adabiyotini davrlashtirish masalalari. Qadimgi davr va ilk O‘rta asrlar mintaqa ma'naviyati rivojidagi asosiy bosqichlar va ularda eroniy tillarda yaratilgan asosiy adabiy yodgorliklar. Ibtidoiy jamoa davri asotirlari. «Avesto» kitobi va asotir tafakkur. Buyuk saltanatlar davri adabiyoti.

Islom mintaqa adabiyoti rivojlanishining birinchi davri. Fors tilida mumtoz she'riyatning shakllanishi va ilk rivoji. Abu Abdulloh Rudakiy qasidalari. “Dunyoviy adabiyot” tushunchasi. XI asr fors tilidagi saroy she'riyati. Sho‘ubiya harakati va Unsuriy ijodining ijtimoiy ahamiyati. FarruXIy va Manuchehriy. “Dunyoviy adabiyot”



tushunchasi. Uning mohiyati va asosiy xususiyatlari. Dunyoviy she'riyatda majoz. Botiniya ta'limoti va Nosir Xusrav ijodi. Tasavvuf adabiyoti va Abdulloh Ansoriy badiiy ijodi. Firdavsiy va uning "Shohnoma" asari "Shohnoma" yozish an'anasini. "Shohnoma" tarkibidagi ishqiy dostonlar: Zol va Rudoba, Bejan va Manija. "Shohnoma"da Rustam obrazi. «Rustam va Suhrob». Siyovush fojeasi. Isfandiyor va Rustam to'qnashuvi. Firdavsiyning Yusuf va Zulayho" dostoni. Firdavsiy "Shohnoma"siga ergashuvchilar. Asadiy Tusiy va uning «Garshaspnoma» asari. Faxriddin Go'rgoniy.

Islom mintaqa adabiyoti rivojining ikkinchi davri. Irfoniy-tasavvufiy adabiyotning yuksalishi. Umar Xayyom va G'azzoliy Mas'ud Sa'd Salmon va Amir Muizziy Irfoniy adabiyot va uning mohiyati. Sanoiy. Sanoiyning «Sayr al-'ibad ila-l-ma'ad» («Alloh bandalarining qaytar joyga safari») asari. «Xadoyiq ul-haqiqa» («Haqiqat bog'lari»). Anvari. Xoqoniy. Nizomiy Ganjaviy. "Xamsa"ning yaratilishi va mohiyati. Farididin Attor va uning «Mantiq ut-tayr» dostoni. Jaloliddin Rumiy. «Masnaviyi ma'naviy»ning bosh g'oyasi haqida. Sa'diy Sheroziy. Fors mumtoz adabiyotida g'azal janrining takomili.

Islom mintaqa adabiyoti rivojining uchinchi davri. "Majoz tariqi". Amir Xusrav Dehlaviy. Hofiz g'azallari. Ubayd 3okoniy. Abdurrahmon Jomiy. Navoiy-Foniy. Shoislom Shomuhamedov va fors adabiyotini o'rganish muammolari.

Yangi davr va zamonaviy Eron adabiyoti

XVI-XVII asrlar manbalari: tarixiy asarlar, tazkira va risolalar

XVI-XVII asrlar adabiyotida asosiy janrlar. XVI-XVII asrlar forsiyzabon adabiyotida hind uslubi. Mirza Abduqodir Bedil ijodi.

Eron adabiyotida "Bozgasht" adabiy oqimi va uning tarafdorlari. XVIII-XIX asrlarda Tehron adabiy maktabi. Xotif Isfaxoniy, Qooniy ijodi.

Isfahon, Sheroz, Tehron adabiy markazlarida ma'rifatchilik harakati (XIX-XX asrning 20-yillarigacha). Rizoqulixon Hidoyat va uning ma'rifatchilik faoliyati.

Xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqlar va Eron adabiyotiga Yevropa madaniyatining ta'siri. Eronda Dorilfunun, nashriyot va bosmaxonalar ochilishi, matbuot rivoji.

Eron adabiyotida Inqilobiy davr adabiyoti (1906-1911 yillar). XX asr boshlarida Eron adabiyotida nasriy janrlar rivoji. Muhammad Ali Jamolzoda, San'atizoda Kirmoniy, Mushfiq Kozimiy ijodi.

XX asr birinchi yarmi nasr va she'riyatda an'ana va yangiliklar. "She'ri nou" oqimi. Nimo Yushij faoliyati.

XX asr 30-50 yillarida badiiy nasrchilikda S. Hidoyat, S. Nafisiy va Buzurg Alaviylar ijodi.

Eron adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchilik. M. Bahor.

Eron adabiyotida hajviy yo'nalish: G'. Soyidiy, J. Mirsodiqiy, I. Guliston.

XX asrning 70-80 yillari Eron adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

## HINDISTON XALQLARI ADABIYOTI

Qadim va mumtoz davr hind adabiyoti

Hindi (urdu) adabiyotini davrlashtirish masalalari. Qadimiy Hindiston xalqlari adabiyoti. Velar va ularning takribiy qismlari, vedalarning Hindiston xalqlari adabiyoti rivojida tutgan o'rni.

Vedanta: vedalarga yakuniy talqinlar g'braxmanlar, aran'yaklar va upanishadlar.

Qadimiys hind eposlari: “Ramayana” va “Mahabxarata”: an'ana va vorisiylik. Hind milliy adabiyotlaridagi eposlarning turli davrlarga oid nushalari.

Buddizm adabiyoti: Jataka - Budda xayoti xakidagi asar. Ashvaghosha – sanskrit adabiyotida buddizm targ‘ibotchisi.

Qadimiy hind she'riyatiga oid traktatlar: Anandavardxana va uning “Dxvan'yaloka” asari, Dandin va uning “Kav'yadarshana” asari, “Alankarshastra”, “Rasamimansa” va boshqa traktatlar.

Qadimgi hind dramaturgiyasi – “Bxaratanat'yashastra” asari. Bxasa birinchi hind dramaturgi. Qadimiy hind eposlari va hind dramaturgiyasi. Dramaturg Shudraka va uning “Mrichchakatika” p'esasi. Kalidasa ijodining hind dramaturgiyasi rivojida tutgan o‘rni.

Qadimgi hind ertak va masallari. Qadimgi hind masali – “Panchatantra” (“Besh kitob”). Ertaklar: “Vetalopanchovinshati” (“Vetalaning 25 xikoyasi”), “Sinxasanadvatrishati” (“Shox taxti haqida 32 hikoya”), “xitopadesha” (“Foydali maslaxatlar”), “Shukasaptati” (“To‘tining 72 xikoyasi”), “Bxaratakadvatrishati” (“Monaxlar haqida 32 hikoya”), “Brixatkatxa” (“Katta hikoya”) va boshqalar

Qadimgi hind adabiyotida roman va satirasining rivoji. Xaribxadra ijodi. Birinchii romanist Bana va Dandin. Dandinning “Dashakumaracharita” (“O‘n shahzoda sarguzashti”) asari.

O‘rta asrlar hind adabiyoti. Bxakti diniy-islohotchilik harakati va uning adabiy jarayonga ta'siri. Nirgun bxakti. Nirgun bxakti vakili Kabir ijodi. Sagun bxakti - Ram bxakti va Krishna bxakti. Ram bxakti adabiyoti vakili Tulsidas ijodi. Tulsidasning “Ramcharitamanasa” asari va “Ramayana” eposi –qiyosiy taxlil.

Krishna bxakti adabiyotining vakili Surdas ijodi. Surdasning “Sursagar” asari va Mahabxarata” eposi – qiyosiy taxlil. O‘rta asr hind agiografik adabiyoti (“varta” janri misolida).

xindistonga islom dinining kirib kelishi. Urdu tili va adabiyotining shakllanishi. Hind tasavvuf adabiyoti – Jayasi (“Padmavat”), Manjxan “Madxumalti”, Kutuban “Mrigavati” va boshqalar ijodi.

Hindistonda forsiyzabon adabiyot: Amir Xusrav Dehlaviy va Bedil ijodi.

Urdu adabiyotida lirik janrlar: g‘azal qasida, ruboiy, masnavi.

Yangi davr va zamonaviy hind adabiyoti

Riti davri adabiyoti va adabiy jarayondagi o‘zgarishlar.

Hindiston xalqlari adabiyotida yangi adabiy yo‘nalishlar va oqimlar.

“Yangi hikoya” yo‘nalishi: yangi obrazlar va syujetlar (Kamleshvar, Rajendra Yadav, Moxan Rakesh).

Ramziylik (romantizm)rivoji. (XX asrning 20-40 yillari).

Modernizm oqimlari: hindi va urdu adabiyotlariga ta'siri.

XX asr 60 yillar hind adiblari asarlarining o‘zbek tiliga tarjimalari.

Panjob adabiyotini davrlashtirish. Siksizm tarixi. Amrita Pritam, Kartar Singx Duggal va 60-70 yillar adabiyoti.

Realizm va tanqidiy realizm rivoji.

Yozuvchi va shoir Tagorning adabiy merosi va ijodiy metodlari.

Zamonaviy hind adabiyotining dolzarb muammolari (nasr va nazm).

## XITOIY ADABIYOTI

Qadim va mumtoz davr Xitoy adabiyoti Xitoy adabiyotini davrlashtirish masalalari. «Shi szin» yozma yodgorligining mumtoz Xitoy adabiyoti shakllanishida tutgan oʻrni. Notiqlik san'ati va falsafiy maktablarning paydo boʻlishi. Qadimgi Xitoy mifologiyasining oʻziga xos xususiyatlari. Ilk individual shoirlar ijodi. Xan' davri she'riyati. Ilk oʻrta asr adabiyotining shakllanishi. Olti sulola davri adabiy merosi. Jianan she'riyati namoyandalari. Oʻrta asr Xitoy lirikasining asoschisi Tao Yuan'min ijodining oʻziga xos xususiyatlari. Tan davri she'riyati asoschilari ijodining shakllanish omillari. Uygʻonish davrining xususiyatlari (VIII-XII asrlar). Van Vey ijodida Renessans elementlari ifodasi. Li Bo ijodida romantik tuygʻularning ifodasi. Xalq qaygʻusi kuychisi – Du Funing ijodiy merosi. Xitoy adabiyotida kichik epik janrlarning paydo boʻlishi. VIII-X asr hikoyanavisligi. Tan novellistikasi. Moʻgʻil istilosi davri (XIII-XIV asrlar). Dramaturg Guan Xan' Sinning ijodi (Yuan' dramasi). Chuanchi janrida yozilgan novellalarning genezisi.

### Yangi davr va zamonaviy Xitoy adabiyoti

Oʻrta asr Xitoy adabiyotida janrlar xilma xilligi. Xitoy adabiyotida ilk ma'rifparvarlik davri. Xitoy adabiyotida romanchilikning paydo boʻlishi. (XVI asrning birinchi yarmi-XVII asrning ikkinchi yarmi). Xitoy adabiyotiga yangi davr siyosiy oʻzgarishlarning ta'siri. Li Yuy (1611-1680) va uning dramaturgiyadagi oʻrni. «Dramaturgiya» traktati. Xun Shen dramaturgiyasi, «Mangulik qasri» dramasi gʻoyasi. Kun Shanjen' va uning «Shaftoli gulli yelpigʻich» dramasi. Pu Sun Linning novellistikasi.

Sao Syuesin va uning «Qizil saroydagi tush» romani. Xitoy eng yangi davr adabiyoti rivojlanishi va «4 may xarakati». Lu Sin' «Telbaning xatlari» hikoyasining taxlili. Mao Dunning xayoti va ijodi. 1966-1976 yillar davomidagi «madaniy revolyusiya»ning adabiyotga koʻrsatgan ta'siri. Lao She ijodida gʻarb falsafasining oʻrni va ijodidagi ifodasi.

## YAPON ADABIYOTI

### Qadim va mumtoz davr yapon adabiyoti

Yapon adabiyotini davrlashtirish masalalari. Kodziki adabiyoti ilk afsonaviy asar. XV-XVI asrlarda shahar adabiyotining rivoji. Simadzaki Toson va yangi she'riyat. Man'yosyu antologiyasida she'riy janrlar. Xeyan davri adabiyoti. Taketori-monogatari monogatari janridagi ilk asar. Sey Syonagon ijodi va «Makura no Sosi» asarining badiiyati. «Kokinsyu» antologiyasi qadimiy yapon she'riyati toʻplami. Kabuki i Dzyoruri teatrlarining oʻziga xosligi. «Ise monogatari» asarining lirik qissalarida sevgi mavzusi. Murasaki Sikibu va uning «Gendzi monogatari» romani haqida.

### Yangi davr va zamonaviy yapon adabiyoti

Yaponiyada ma'rifatchilik davri adabiyoti. Miamoto Yuriko hayoti va ijodi. Realizm taraqqiyoti. Ftabatey Sitey ijodi. Mori Ogay ijodining oʻziga xosliklari. Abe Kobo ijodi. Yaponiya adabiyotida yoshlar mavzusi. Naturalizm. Simadzaki Toson nasri. Adabiy

to'g'araklar faoliyati. Tanidzaki Dzyun'itiro ijodida an'ana va novatorlik. Noma xirosi ijodi

An'analarning davom etishi. Kavabata Yasunari ijodida estetik qarashlar. Realizmning taraqqiy etishi. Subouti Syoyo ijodining o'ziga xosligi. Adabiyotda urush mavzusi. Gomikova Dzyumpey ijodi.

## **KOREYS ADABIYOTI**

Qadim va mumtoz davr koreys adabiyoti

Koreys adabiyotini davrlashtirish masalalari. XIV asrgacha bo'lgan koreys adabiyoti. Koreya adabiyotining ilk davri (X asr o'rtalarigacha). Tarixiy nasrning taraqqiyoti. Buddizmning koreys adabiyoti va madaniyatiga ta'siri. Koreys adabiyoti tarixining ikkinchi bosqichi. (X-XIII asrlar). Klassik yodgorliklarning yaratilishi. Koreys adabiyoti tarixining uchinchi bosqichi. (XII-XIV asrlar). Xangilda she'rlarning yaratilishi (xyanga). Kichik shakldagi «pxesol» janrining paydo bo'lishi. Koreys alifbosining yaratilishi va koreys tilidagi ilk adabiy manbalar Poemalar yaratilish davri ("sijo", "kasa") Qissa janrining shakllanishi. "Pxesol" adabiyotining ravnaqi. Rivoyat, novella, ocherklar. Koreyaning XVII asrda ijtimoiy-tarixiy sharoit va adabiy jarayon.

Yangi davr va zamonaviy koreys adabiyoti

"Chansijo" ning shakllanishi. Xanmunda nasr. Hikoya, roman janrlarining rivoji. Koreys yangi davr adabiyoti (1945 yildan to bugungi kungacha). Ozod Koreya adabiyoti. Zamonaviy nasr va uning taniqli namoyandalarning ijodiy merosi. Koreys adabiyotidagi an'anaviy yo'nalishlar. Zamonaviy she'riyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Teatr san'ati, dramalarda koreys milliy ruhining aks etishi. XX asr ikkinchi yarmi adabiyotining rivojlanish omillari (Nasr. She'riyat. Dramaturgiya)

## **TURK ADABIYOTI**

Turk xalq og'zaki ijodi. Turk mifologiyasi. Turk xalq ijodiyotida lirik janrlar poetikasi. Maqollar tematikasi. Olqish va qarg'ish an'anasi. mavzu. Ertak va latifalarda obrazlar olami. Turk xalq hikoyalari va baxshilari. Turk xalq dostonlari. "Dada Qo'rqut kitobi". Turk xalq teatri. Bolalar folklori. Turkiy xalqlar og'zaki ijodining tipologiyasi.

Turk devon adabiyoti. XIII-XV asrlar turk devon adabiyotida tasavvufiy g'oyalarning namoyon bo'lishi. Jaloliddin Rumiy va Sulton Valad ijodi. Devon adabiyotida "Yusuf va Zulayho" mavzusidagi asarlar. Shayyod Hamza ijodi. Tekketasavvuf adabiyoti. Yunus Emro va Hoji Bayram ijodida xalqona ohanglar jilosi. Adabiy tarjimashunoslikning shakllanishi. Gulshahriy, Oshiq Posho, Ahmadiy adabiy merosi. Turk adabiyotida tazkirachilik. Yusuf Sinon Shayxiy, Ahmad Posho, Hamidulla Hamdiy ijodi. Turk shoirasi Mehri Xotun ijodi. Iso Masihiy va uning "Shaharangiz" asari. XV-XVIII asrlar turk adabiyotida adabiy muhit. Ijodkor sultonlar. XVIII asr devon adabiyotining yirik shoirlari. Lola davri adabiyoti va uning yirik vakili Ahmad Nodim. Shayx G'olib she'riyatiga Rumiy ijodining ta'siri.

Zamonaviy turk adabiyoti. Tanzimot adabiyoti: mavzular va janrlar yangilanishidagi ilk qadamlar. Sarvati Funun adabiyoti va shu nomdagi jurnal faoliyati. Milliy adabiyot va unda ma'rifatparvarlik g'oyalarning aks etishi. Jumhuriyat adabiyotining poetik taraqqiyoti. Jumhuriyat adabiyotida dramaturgiya. Jumhuriyat adabiyotida she'riyatning yangicha tamoyillari. Jumhuriyat adabiyotida nasriy

izlanishlar. Hikoya, roman janrining taraqqiyot tamoyillari. Hozirgi adabiy jarayon.

### **Tilshunoslik bo'yicha savollar**

1. Qadimgi va zamonaviy lug'atlar hamda ularning o'zaro farqi.
2. Morfema tushunchasi, (o'rganilgan sharq tilida) morfema qanday xususiyatlariga ega?
3. Tilshunoslikda monosillabizm va polisillabizm tushunchalarining ahamiyati (o'rganilgan sharq tili misolida).
4. O'rganilgan sharq tilining tillar geneologik tasnifidagi o'rni.
5. O'rganilgan sharq tilining tipologik tasnifidagi o'rni.
6. O'rganilgan sharq tilida so'z turkumlari muammosi yuzasidan olimlarning qarashlari.
7. O'rganilgan sharq tilida so'z turkumlarini ajratish mezonlari va olimlarning bu boradagi qarashlari.
8. Grammatik kategoriya va uning (o'rganilgan sharq tili) so'z turkumlari muammosi bilan bog'liq taraflari.
9. O'rganilgan sharq tilida morfema, so'z va so'z birikmasi muammosi nimadan iboratligi bo'yicha olimlarning qarashlari.
10. Grammatik forma va grammatik ma'no tushunchalari va uning o'ziga xos jihatlari (o'rganilgan sharq tili misolida).
11. Tilshunoslikdagi nul' forma va uning o'ziga xos jihatlari.
12. O'rganilgan sharq tilida so'z yasalishining asosiy usullari va o'ziga xos jihatlari.
13. Til sathlari haqida ma'lumot bering.
14. O'rganilgan sharq tilida reduplikasiya.
15. Izomorfizm va allomorfizm tushunchalari haqida ma'lumot bering.
16. Negizli va amorf tillar qanday tillar. Nima sababli ular shunday ataladi?
17. Izolyativ va agglyutinativ tillar orasidagi farq. Bunday tillar qanday mezonlar asosida ajratiladi?
18. O'rganilgan sharq tilida qo'shma so'z va so'z birikmalarining distinktiv belgilari.
19. Zamonaviy tilshunoslikda paradigma tushunchasi. Zamonaviy lingvistik paradigmalari.
20. Til va nutqning gnoseologik, ontologik, pragmatik tavsiflari. Til va nutq birliklari.
21. Tilning tizimli-tuzilmaviy qurilishi. Tilda shakl va mazmun.
22. Tilni me'yorlashtirish masalalari.
23. Til rivojining ko'rinishlari va til rivojida tabiiylik va onglilik. Tillarning evolyutsiyasi va rivojlanishi.
24. Lingvosemiotika. Tilning belgisi tabiati. Tilning belgilar nazariyasi. Til belgilari tipologiyasi.
25. Mentalingvistika: til, ong va tafakkur aloqasining lingvofalsafiy tomonlari.
26. Tilning semantik tizimi: anglash, bilim, mazmun.
27. Psixolingvistika: psixolingvistik g'oyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Psixolingvistik maktablar va yo'nalishlar.

28. Kognitiv tilshunoslik: bilimning konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning lingvistik muammolari.
29. Kommunikativ lingvistika: til va nutqning kommunikativ birliklari. Sintaktik va kommunikativ ma'nolari.
30. Amaliy lingvistika va kompyuter lingvistikasi.
31. Sotsiolingvistika: Sotsiolingvistik omillar tasnifi va til tizimi rivojining ijtimoiy omillari.
32. Til va madaniyat: metodologiya va nazariya. Lingvomadaniyatning kognitiv aspektlari.
33. Zamonaviy komparativistika muammolari.
34. Metodologiya va tilshunoslik metodlari, zamonaviy tilshunoslikning metodologik izlanishlari.
35. Lingvistik komparativistika metodlari.
36. Struktur metodlar.
37. Lingvostatistik tahlilning asosiy metodlari va tushunchalari.
38. Matn lingvistikasi, uning obykti va predmeti.

### **Adabiyotshunoslik bo'yicha savollar**

1. Adabiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini. Badiiy adabiyotning bosh ob'ekti.
2. Ma'naviyat va adabiyot. Yosh avlod ma'naviy tarbiyasida badiiy adabiyotning yetakchi mavqei va buning sabablari.
3. Estetik tarbiya va adabiyot.
4. O'zbekistonda Sharq xalqlari adabiyotini o'rganilish darajasi.
5. Adabiyotda ramz, shakl va mazmun.
6. Badiiy matn va badiiy uslub.
7. Badiiy tafakkur va hayotga estetik munosabat.
8. Badiiy adabiyotda axloqiy qadriyatlar. Adabiy jarayonga yondoshuv turlari.
9. Badiiy asarning tarkibiy shakllanishi.
10. San'at – voqelikka taqlid sifatida (“mimezis” nazariyasi).
11. Insonlar faoliyati – badiiy adabiyotning bosh mavzusi sifatida (Lessing nazariyasi).
12. So'z san'atida emosional ta'sir qudratini hosil qilishning o'ziga xos usullari (Katarsis nazariyasi).
13. Sharqda adabiy maktablar, oqimlar va yo'nalishlar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
14. Sharq adabiyotida ijodiy metod va uslub masalasi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
15. Sharq adabiyotini davrlashtirishning umumiy muammolari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
16. Yangi davr Sharq adabiyotida realizm masalasi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
17. Yangi davr Sharq adabiyotida romantizm (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
18. Yangi davr Sharq adabiyotida modernizm (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)

19. Yangi davr Sharq adabiyotida postmodernizm tamoyillari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
20. Adabiyot san'atining bir turi sifatida.
21. She'riyatda vazn, ritm va ohang (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
22. Xalq og'zaki ijodida mazmun va ohang uyg'unligi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
23. Mumtoz she'riyatda musiqiylikni ta'minlovchi badiiy vositalar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
24. So'z san'atida tasviriylikni ta'minlovchi omillar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
25. So'z san'atida metafora va tashbihning ahamiyati (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
26. Badiiy nutq so'z san'atining asosi sifatida. Nasr va nazmda badiiy nutqning o'ziga xos namoyon bo'lishi. Nasr va nazmda so'z va nutq (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
27. Badiiy asarda voqea qatlami. Syujet va fabula (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
28. Adabiyotshunoslikda muallif va hikoyachi (roviy) obrazi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)
29. Kompozisiya va komponent. Personaj, xarakter, tip (yig'ma xarakter) (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
30. Badiiy asar turlari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
31. Adabiy tur va janrlarning shakllanishi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
32. Epik janrlar. Epos va roman (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
33. Sharq adabiyotida kichik epik janrlar va epik qahramon masalasi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
34. Qadim va O'rta asrlarda sharq adabiyotida drama (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
35. Mumtoz sharq adabiyotida dramatik tur unsurlari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
36. An'anaviy va xalq teatri (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
37. Yangi davrda dramatik janrlar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
38. Dramatik asarda syujet va kompozisiyaning o'ziga xos xususiyatlari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
39. Lirik nutq: vazn, qofiya, ohang (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
40. Lirikada shakl va mazmun mutanosibliigi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida)..
41. Lirik asarda syujet va kompozisiya. Lirik asar personajlari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
42. Mumtoz adabiyotda lirik janrlar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
43. Xalq og'zaki ijodida lirik janrlar va ularning yozma adabiyotga ta'siri (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
44. Yangi davr she'riy janrlari. Nasriy lirika (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
45. Lirikada personaj va xarakter masalasi. Lirik qahramon va muallif (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).

46. Yangi davr jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
47. Yangi davr Sharq xalqlari adabiyotidagi o'zgarishlar va ularning tarixiy-ijtimoiy omillari (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
48. Yangi davrda Yevropa adabiyoti va falsafiy estetik oqimlarining sharq xalqlari adabiyotiga ta'siri (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
49. XX asr realizmi va uning o'ziga xosligi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).
50. Neorealizm. Magik realizm. Intellektual realizm. Sharq adabiyotida ularning namoyon bo'lishi (o'rganilayotgan til adabiyoti misolida).

### **Kirish imtihonlari natijalarini baholash mezonlari**

Imtihonni baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi.

JAMI 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

- 1-savolga javob: maksimal – 25ball;
- 2-savolga javob: maksimal – 25 ball;
- 3-savolga javob: maksimal – 25 ball;
- 4-savolga javob: maksimal – 25 ball.

Har bir savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmuni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish iqtidori to'la ko'rinsa;
- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilgan;
- o'z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda eta olgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga ***a'lo*** baho qo'yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, ***yaxshi*** baho qo'yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, ***qoniqarli*** baho qo'yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun ***qoniqarsiz*** baho qo'yiladi.

### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR: TILSHUNOSLIK BO'YICHA ADABIYOTLAR:**

1. Кодухов В.И. Введение в языкознание. – М.: «Просвещение», 1979.



2. Суперанская А. В. Общая терминология: вопросы теории. – М.: Наука, 1989.
  3. Хомский Н., Миллер Дж. Введение в формальный анализ естественных языков. – М., 2003.
  4. Лингвистический энциклопедический словарь, М., 1990.
  5. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М., 2004.
  6. Мечковская Н. Б. Общая языкознание. Структурная и социальная типология языков. – М., 2001.
  7. Попова З. Д., Стернин М. Когнитивная лингвистика. – М., 2007.
  8. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Т., 2010.
  9. Липгарт А. Основы лингвопоэтики. – М., 2008.
  10. Крючкова Т.Б. Особенности формирования и развития общественно-политической лексики и терминологии. – М. Наука, 1989.
- Arab tili*
11. Иброҳимов Н.И., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Т., 1997, 2004. 1-2--жилдлар.
  12. Ковалёв А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 2000.
  13. Кузьмин С. А Учебник арабского языка. М., 2001.
  14. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. М. , 2001
  15. Мусаев. О. Араб тили асосий қоидалари тизими. Т.: ТошДШИ, 2000.
  16. Носирова М. А. Маҳмуд Замахшарийнинг Ал-Унмузаж фи-н-наҳв рисоласи ТошДШИ. Т., 2005
